

YANGI O'ZBEKISTONDA -YANGI ISLOHOTLAR

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Qalandarova Ro'zaxon

Jo'rayeva Odina

fakultet ma'naviy va marifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

Xurramov Dostonbek Dilmurodovich

Rozaxonqalandarova4@gmail.com.88-505-46-16

Annotatsiya:Yangi izlanishlar bo'lgani sayin yangi o'zgarishlar ham amalda o'z isbotini topaveradi.Bu maqola ham aynan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi islohotlar hamda ualrning amaldagi natijasini dunyoga tarannum etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Harakatlari strategiyasi, 5 muhim tashabbus, tamal toshi, IT,



Vaqt o'tgani sayin yangi zamon ham yangi yangi o'zgarishlarni yuzlashtiradi.Shu jumladan,mustaqillikni qabul qilgandan to bugungi kungacha har bir kun yangi imkoniyatni qo'lga kiritishga imkon berdi.Bu degani dunyo hamjamiyati yurtimizga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi.Xorijiy davlatlar bilan tashqi va siyosiy iqtisodiyot mustahkamlandi.Shu darjada O'zbekiston keng

ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan O'zbekistonning rivojlanishi uchun ishlab chiqilgan 5ta ustuvor yo'nalishni ichiga olgan harakatlar strategiyasi va yoshlarni bir nuqtaga birlashtira olgan 5 muhim tashabbus bularning yaqqol misolidir, "Farzandlarimizda yoshlik chog'idan kitobga mehr qo'yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri javob topish ko'nikmasini topish, ko'nikmasini shakllantirishimiz buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor" darhaqiqat, prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu fikrlari ulg'ayib kelayotga yosh avlod uchun tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish hamda qo'llab -quvvatlash, milliy dasturini tasdiqlash to'g'risidagi qarorida ham "aholining kitobxonlik darajasi va kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib boorish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar saloyihatini oshirish hamda kitobxon yoshlar safini kengaytirib, ularga berilayotgan imkoniyatlar yuqoridagi fikrlarning isboti desam mubolag'a bo'lmaydi."

Daraxtning ildizi baquvvat bo'lsa, u ming yil umr ko'ra olar ekan. Barcha sohalarning keskin rivojlanish zamirida axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos. "Axborot texnologiyalar va kommunikatsiyalari rivoji barcha sohalarning jadal taraqqiyotiga xizmat qiladi, odamlarga qulaylik yaratadi" -deb ta'kidlaydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miramonovich. Albatta, bugungi kunda texnologiya sohasida ham ko'pkina yutuqlarga ega bo'ldik. Dunyo miqyosida faoliyat yuritib kelayotgan IT sohasida ham yurtdoshlarimizda bilim va ko'nikmalar rivojlandi. Hayotimiz usgbu so'z bilan chanbarchast bog'liq ya'ni Yevropa ta'lim darajasini zabt etish uchun texnologiya biz uchun eng katta imkon-kuch!

Sport bu harakat, sog'liq va baxtli hayot manbai. Shu doirada sport O'rta Osiyo nafaqat Yevropa mamlakatlari xalqlarini bir-biri bilan do'stona uchrashuvlarga ham sabab bo'ladi. Misol uchun 2018-yilda yurtboshimiz tomonidan shaxmatni rivojlantirish borasidagi qarori bugungi kunda amalda o'z tastig'ini topdi. Kuni kecha O'zbekistonlik yosh shaxmatchilarimiz Hindistonning Chennai shahrida

o'tkazilgan 44-butunjahon shaxmat olimpiadasida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib qaytishdi. Shaxmatchilarimiz g'alabasi –aql va zakovat, matonat va mardlik tantanasidesak adashmasak bo'lamiz. Yosh shaxmatchilarimizga yurtboshimiz tomonidan berilgan ishonchning na'munasi deb baralla ayta olamiz.

Shunday qilib bugungi kunda yangi O'zbekiston yangi islohatlar zamiriga aylandi!

O onajon qara! Yangi tong bugun,
Qushlar tinim bilmas chug'irlayotir.
Vatanning tinch-totiv kunlari meni,
O'zgacah sururbaxsh g'ururlayotir!

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Lex.uz sayti.
2. "Jannatim onam" she'riy to'plami.
3. Kun.uz. sayti.